

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH”
FANIDAN**

R E F E R A T

**MAVZU: JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIDAN OLINADIGAN
SOLIQNI HISOBLASH VA BYUDJETGA O‘TKAZISH TARTIBI**

**Bajardi: XBA-94 guruhi talabasi
Po‘latov A.**

**TOSHKENT
2014**

Reja:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlari tarkibida tutgan o'rni
2. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan bazani aniqlash tartibi
3. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari

1. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlari tarkibida tutgan o'rni

Mamlakatimizda xususiy mulkka asoslangan ko'p ukladli bozor iqtisodiyotining qaror topishi va rivojlanishi jarayonida, turli mulk shaklidagi institutlarning faol rivojlanishi va tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish, ularni aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, real mulk shaklidagi turli mulkdorlar sinfini shakllanishiga olib keldi. Shundan kelib chiqqan holda, mulkchilik munosabatlarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar bu bozor iqtisodiyoti tizimiga xos bo'lgan jarayondir.

Turli xil shakldagi mol-mulklar, xam yuridik shaxslar, xam jismoniy shaxslar tasarrufida bulishi mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «har-bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli» hamda «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi» deb ko'rsatilgan. Shunday ekan, mulk shakllarining boskichma-boskich tashkil etilishi va rivojlanishi uchun, avvalo, ularning hukukiy asosi ta'minlanishi lozim. Bu masalani hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida» gi qonuni qabul qilindi. Qonun mulkchilikning xamma shakllari daxlsiz bo'lishiga va ularning rivojlanishi uchun keng sharoit yaratilishiga kafolat beradi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, jismoniy shaxslar tasarrufida bino va inshootlar, mashina va uskunalar, transport vositalari, asbob-uskunalar, ishlab-chikarish jixozlari xamda boshqa turdagi mol-mulklar bo'lishi mumkin. Shu tufayli, jismoniy shaxslarning tasarrufida bo'lgan mol-mulklarning miqdori va qiymati cheklanmagan, imkon qadar mol-mulklarni ko'proq to'planishi va mulkdorlarning moddiy boyligini o'sishi imkoni tug'ilmokda. Lekin, shu bilan birga jamiyatning turli sinf va guruhlarida o'rtasida mulkiy tabaqalanishi muammosi xam kuchaymoqda. Bunday muammolarni ma'lum darajada mol-mulklarni soliqqa tortish orkali bartaraf etish mumkin. Shuningdek, ko'pchilik turdagi daromad va mol-mulklarni soliqqa tortish orkali, jismoniy shaxslarning mulkiy holatini

boshqarib turish ta'minlanadi xamda jamiyat oldida mulkdorlarning soliq bo'yicha javobgarligini teng ta'minlashda mulkiy soliqlar imkon qadar ko'prok ahamiyatga ega bo'lib, daromad solig'ini to'ldirgan xolda asosiy vositalarni jamg'arilishiga va ulardan samarali foydalanilishiga olib keladi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish jarayonida soliq siyosatini erkinlashtirish ayniqsa muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu borada soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan mol-mulk solig'ini ham takomillashtirishni talab etilmoqda. Ayniqsa jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i bu davrda faqatgina davlat byudjetini mablag' bilan ta'minlovchi fiskal vosita bo'lib qolmay, soliq to'lovchining o'zini mulkdor deb xis qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omil vazifasini ham bajaradi va moddiy jihatdan ta'minlashga imkon beradi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini byudjetga undirish usullarining nazariy jihatdan etarli darajada o'rganilmaganligi amaliyotda ulardan samarali foydalanish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ma'lumki, mulk bir jismoniy yoki yuridik shaxsning ma'lum bir davrda ega bo'lgan boylikariga daxldor barcha iqtisodiy qiymatliklarning puldagi ifodasidir.

Tarixdan ma'lumki, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i qadimdan undirilib kelinayotgan soliqlardan biri hisoblanadi. Qadimda mol-mulk va yer soliqlari "moli-xiroj" va "zakot" nomlari bilan undirib kelingan. Ayniqsa "zakot" eng muhim soliq turidan bo'lib, uni to'lash har bir musulmon bajarishi lozim bo'lgan besh asosiy farz sirasiga kirgan. "Zakot" solig'ini moli ma'lum bir daraja (nisob)ga etgan musulmon fuqaro tomonidan olingan.

Mol-mulk solig'i nafaqat davlatni fiskal resurslar bilan ta'minlash, balki jamiyat a'zolari orasida daromad va taqsimotdagi nomutanosiblikni bartaraf qilishda ham zaruriy vosita bo'lib xizmat qiladi. Mulkiy munosabatlarning huquqiy me'yorlari ayniqsa bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda oldingi o'rinlarda turadi. Iqtisodiyotda esa, bu me'yorlar mulk ob'ektlariga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish tushunchalarini bildiradi. Mol-mulk solig'i jismoniy shaxslarning ma'lum bir davrda ega bo'lgan, xususan, qo'zg'almas va

qo'zg'aluvchan mulklarini to'la yoki ma'lum bir qismini qiymatidan olinadigan to'g'ri soliqdir.

Ma'lumki, jismoniy shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishning ilmiy asoslangan mexanizmini topish va uni har taraflama asoslab berish soliq amaliyotining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mol-mulk solig'ining ahamiyati yanada ortadi, chunki bozor sharoitida mulkiy resurslarning qiymati tobora oshib, uning tarkibi takomillashadi. Bu esa o'z navbatida, soliqqa tortiladigan mol-mulk solig'i qiymatining oshishi va soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning "Soliq tizimining eng muhim vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy-xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir» degan fikrlari, jumladan solik tizimida jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan solikka xam to'liq tegishli. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mol-mulklarni soliqqa tortishni amaliy ahamiyati o'sib bormoqda va shunga muvofiq kelajakda mol-mulklarni soliqqa tortish buyicha keng izlanishlarning zarurati paydo bo'lmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i mahalliy byudjetga undiriladigan asosiy soliqlardan biri hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i mahalliy byudjet daromadlarini doimiy shakllantirib turuvchi barqaror manba bo'lganligi uchun undiriladi. Ushbu soliq fiskal funktsiyani bajarib, davlat byudjeti daromadlarini to'ldiradi. Shunday qilib, bu soliqlarning ahamiyati davlat byudjetining manfaatdorligi bilan ham izohlanadi.

Ushbu soliq turining yana bir ustun jihati shundaki, bu ularning soliq bazasini identifikatsiyasi bilan bog'liq, ya'ni soliq ob'ektining qat'iyligidadir. Shuning uchun ham yer va mol-mulkni soliq to'lashdan qochish maqsadida yashirish qiyin

va soliqqa tortish maqsadida uni qiymatini aniqlash egasining xohishidan kelib chiqmaydi.

Ushbu soliq turi to'g'ri soliq bo'lib, u o'zining ushbu sifati bilan moddiy boyliklarni olish va jang'arish jarayonida undiriladi hamda soliq to'lovchining mulkiy daromadlari qiymatidan undiriladi. Ma'lumki, to'g'ri soliqlar iqtisodiy adabiyotlarda soliq to'lovchining mulkiy va ijtimoiy mavqeiga ko'ra shaxsiy va real soliq'larga bo'linadi.

Shaxsiy soliqlar - soliq to'lovchining mulkiy va ijtimoiy ahvoriga bog'liq holda belgilanadigan soliqlar bo'lsa, real soliqlar - soliq to'lovchining moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar faoliyat yoki tovarlarga, ya'ni mulk (xususiy mulk)ni sotish, sotib olish, egalik qilishga solinadi. Tarixan real soliqlar, bevosita soliqlarning eng qadimgi ibtidoiy shaklida bo'lgan. Mol-mulk solig'i dastlab asosan real soliqlar shaklida amaliyotda yuzaga kelgan. Bunda, qoidaga ko'ra, mol-mulkning alohida turlari turli soliqlar: yer, mol-mulk uy, xunarmandchilik va pul sarmoyasi soliqlariga tortilgan. Real soliqlar asosida tashqi belgilar yotib, ular yer maydonining miqdori, qurilish qiymati yoki uning ijara to'lovi va boshqalar tashkil qilgan. Real soliqlarda bir xil mol-mulkka ega bo'lgan shaxslar, bir xil miqdorda soliq to'laganlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish lozimki, shaxsiy soliqlar soliq to'lovchi olingan haqiqiy daromaddan to'lansa, real soliq'larga u yoki bu soliqqa tortish predmeti hisoblangan (ko'chmas mulk)dan muayyan iqtisodiy sharoitlarda olinadigan taxminiy o'rtacha daromad soliqqa tortiladi. Avvalo real soliq'larga mol-mulk soliqqa tortilib, va bundan ularning inglizcha «real» nomi kelib chiqadi.

Taniqli rus tadqiqotchi A.Trivus real soliq'larga quyidagicha ta'rif beradi: Real soliqlar (u yoki bu ob'ekt - yer, korxonalar, uy, pul tarzidagi sarmoya to'lovchiga ta'luqliligi omili bo'yicha) soliqqa tortiladigan mulkning aniq belgilari bo'yicha

aniqlanadi, bu belgilar amalda to'lovga qobillik haqida emas, balki me'yoriy, "taxmin qilinadigan" to'lovga qobillik to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi¹.

Demak agar mol-mulkni soliqqa tortish real soliqqa tortish tamoyiliga muvofiq qurilgan bo'lsa, unda har bir alohida olingan mol-mulkning, umumiy soni va hajmi, uning umumiy qiymatidan qat'iy nazar hamda to'lovchining moliyaviy ahvolini hisobga olmasdan soliqqa tortiladi. Shaxsiy belgilar asosida qurilgan mol-mulk solig'ida esa, alohida olingan mol-mulk emas, balki uning umumiy miqdori soliqqa tortiladi. Mol-mulk solig'idan ijtimoiy extiyojlarni qondiruvchi mol-mulk ozod qilinish mumkin. Real soliqqa tortish XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ustivor bo'lib, keng miqyosda qo'llanilgan. Mana shu davrdayoq olimlar uning kamchiliklarini ko'rsatib berdilar. Xususan, olim G.Sadovskiy bu haqda shunday yozadi: «Yer va uy-joy solig'i eng boy sohiblardan ham, na bir qarich yerga va na qurilishning bitta g'ishtiga ham egalik qila olmaydigan shaxslardan ham bir xil hajmdagi foizlarda undirilgan»². Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklar soliq to'lovchining to'lovga qobilligini hisobga oluvchi daromad solig'ining joriy etilishi va rivojlantirilishi hamda unga qo'shimcha mol-mulk solig'i kiritilishi bilan bartaraf etildi.

Real soliqlarni hisoblab chiqarishda odatda mol-mulkning o'rtacha daromadliligi asos qilib olinadi. Shu bois mulkdorlarni soliqqa tortishdagi bir tekislik kadastrlar (ayniqsa, yer kadastri) tizimiga suyanuvchi yaxshi tashkil etilgan baholashdagina ta'minlanishi mumkin. Buning aholining mol-mulkida kuchli tabaqalanish bo'lmasligi lozim. Bo'lardan tashqari real soliqqa tortishdan mahalliy soliqlar tizimida ko'chmas mol-mulk egalarini, mahalliy xo'jalikni obodonlashtirish ishlariga xarajat qilishdan «qochuvchi»larni keskin soliqqa tortish usuli sifatida foydalanish mumkin. Biroq, shaxsiy soliqlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan adolatli hisoblanadi. Bu faqat daromad solig'i (uning shaxsiy soliq sifatidagi mohiyati isbotlangan mol-mulk solig'iga ham taaluqlidir. Korxonalar,


¹ Тривус А. Налоги как орудие экономической политики. -Баку: РИО, АСПС 1925. стр.187

² Садовский Г. К вопросу: реальное обложение или личное. СПб. 1910. стр. 2

aholi turli guruhdarining mulkiy ahvoli bir-biridan keskin farqlangan o'tish davri iqtisodiyotida bu, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini huquqiy tartibga solishning asosiy manbalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 272-277 moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrda 478-sonli "Jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan bino va inshootlarni baholash va qayta baholash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori kiradi. Ilgari mol-mulk solig'ini undirib olinishi 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinar edi

Davlat byudjeti daromadlari tarkibiga e'tibor qaratishdan oldin, iqtisodiyotga tushayotgan soliq yuki to'g'risida ozgina to'xtalsak. Yalpi ichki mahsulot absolyut va nisbiy ko'rsatkichda oshib bormoqda. Masalan, 2010-2013 yillar mobaynida YaIM nisbiy ko'rsatkichlarda har yili 8% miqdorida oshib bormoqda. YaIM ga nisbatan soliq og'irligi esa 2010 yilda 21,9%, 2011 yilda 22,0%ni, 2012 yilda 21,5%ni tashkil etdi, bu esa YaIM ga soliq yukining birmuncha pasayayotganligidan dalolat beradi, 2013 yilda soliq yuki 20,8% ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 punktga kamdir.



1-diagramma. YAIM va soliq yuki darajasi³.

³ Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Biz yuqorida jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati bilan tanishib chiqdik, endi uning fiskallik ahamiyati, ya'ni byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilsak:

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2011-2014 yillardagi dinamikasi⁴

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil (reja)	
	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	16178563,5	100	20614100,0	100	25104900,0	100	38160800,0	100
To'g'ri soliqlar	4238732,8	26,2	5196400,0	25,2	6583100,0	26,2	7790400,0	25,8
Egri soliqlar	8656853,1	53,5	11187800,0	54,3	13039400,0	51,9	15618200,0	51,8
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	2308908,7	14,3	2746400,0	13,3	3755500,0	15,0	4521400,0	15
Ustama foyda solig'i	142314,4	0,8	250000,0	1,2	294500,0	1,2	388400,0	1,0
Boshqa daromadlar	831754,5	5,1	1233500,0	6,0	1432400,0	5,7	1842400,0	4,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2011-2014 yillarda davlat byudjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlarning salmog'i birmuncha pasaygan, 2011 yilda uning salmog'i 26,2% bo'lgan bo'lsa, 2014 yildagi reja ko'rsatkichlari bo'yicha 25,8%ni tashkil etgan. Byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlarning salmog'i kamayishiga sabablardan biri yuridik shaxslar foyda va jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarining pasaytirilganligi bilan izohlash mumkin.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar

2. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan bazani aniqlash tartibi

Mamlakatimiz soliq tizimida mol-mulk solig'i o'ziga xos o'ringa ega ekanligini oldingi bobda tanishib chiqdik. Bu soliq turi rag'batlantiruvchi xususiyatga ega bo'lib, soliq to'lovchini iloji boricha mavjud mulkiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishga, keraksiz mulklarni sotishga undaydigan soliqlardan hisoblanadi.

Ma'lumki, jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan bazani hamda mol-mulkni soliqqa tortish mexanizmining ilmiy asoslangan variantlarini izlab topish va asoslab berish iqtisodiyotimiz va soliq tizimi samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunonchi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mol-mulk solig'ining ahamiyati yanada ortadi, chunki iqtisodiyot rivojlanib borgan sari odamlarda jamg'arib boriladigan daromad miqdori ortib, investitsion faollik oshadi, natijada mol-mulkka egalik qilish sur'atlari oshib, uning tarkibi takomillashadi.

Bu esa o'z navbatida, soliqqa tortiladigan mol-mulk solig'i qiymatining oshishi va soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi. Mol-mulk solig'i mavjud va moddiy ko'rinishdagi, ya'ni mulk shaklida bo'lgan ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi.

Mol-mulk soliqlarining fiskal ahamiyatidan ko'ra, iqtisodiy ahamiyati ko'proqdir. U mol-mulkka qarab tabaqalanishini hamda unumsiz iste'molni mumkin qadar qisqartirishga, iste'molni davlat uchun maqbul yo'lga solishga xizmat kiladi.

Yaqin vaqtlarga qadar aholidan undiriladigan soliqlarning tartibga soluvchi ta'siri katta emas edi. Ular amalda soliq to'lovchilar ommasining moddiy ahvoriga ta'sir ko'rsatmas edi. Chunki ishlovchilarning ko'pchiligiga (ayniqsa, iqtisodiyotning davlat sektorida) kam haq to'lanishi hamma uchun mushtarak bo'lgan bir tekis vaziyatni vujudga keltirar va soliq majburiyatlari unchalik og'ir

tuyulmas edi. Fuqarolar egalik qilishi mumkin bo'lgan mol-mulkning turi va miqdori ham cheklangan edi.

Bugungi kunda ish xaqi va tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shaxsiy daromadlar darajasini keskin chegaralashdan voz kechilgan. Mulkchilik munosabatlarida o'zgarishlar yuz bergan. Bu kishilarga xilma-xil mol-mulkka cheklanmagan miqdorda egalik qilish imkonini bermoqda. Mulk - bu o'zlashtirishdir, har-bir inson harakatida mulkga egalik qilish uchun fikrlab harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida, daromadlar va moddiy boylik darajasini soliq yordamida tartibga solishning rolini ancha oshirmoqda. Davlat eng boy-badavlat shaxslarga daromad solig'i va mol-mulk solig'i solish asosida jamiyatning siyosiy barqarorligini saqlab turishi, kishilar orasidagi keskin farqni kamaytirishi kerak. Chunki ijtimoiy-adolat nuqtai nazaridan qaraganda, bozor iqtisodiyoti o'z tartibi bilan aslo ideal iqtisodiy tizim emas.

Bozor iqtisodiyoti davrida mulkiy va ijtimoiy tengsizlik kuchayishi muqarrarligi sababli, davlat soliq siyosatini ishlab chiqish vaqtida ushbu omilni albatta hisobga olishi lozim. Busiz aslo mumkin emas. Avvalo, soliqqa tortishni daromadlar va shunga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli tarzda qayta taqsimlashga yo'naltirish kerak. U aholi daromadlari va boyligi darajasida ochiq ko'rinib turgan, huquqiy tenglikni buzadigan va ijtimoiy portlash xavfini tug'diradigan tengsizlikni yumshatishi kerak.

Yuqori darajada progressiv daromad solig'i va mol-mulk solig'idan samarali foydalanish asosida aholining boylari bilan kambagallari o'rtasidagi «farqni» yumshatish mumkin. Daromad solig'ining eng yuqori stavkalari boylarni o'z sarmoyasi yoki daromadining bir qismidan soliqqa tortiladigan daromad keltiruvchi mol-mulkni investitsiyalash uchun emas, balki soliqqa tortilmaydigan va daromad keltiradigan juda qimmatbaxo mol-mulkni sotib olish uchun foydalanishga rag'batlantirishi mumkin. Mol-mulk (boylik) solig'i mavjudligi va uni takomillashtirish mana shu tamoyilni birmuncha tuzata oladi.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i salmog'ining ozligiga qaramasdan, bu soliq turidan maxalliy byudjetlarga tushum yildan-yilga o'sib bormoqda, sababi

mulklarni qayta ro'yxatdan o'tkazish, qayta baholash, respublikada mulklarni xususiylashtirish borasida ishlarining muntazam olib borilishi zarur. Har qanday iqtisodiy jarayonlarda baho ko'rsatgichi asosiy parametr bo'lganligi sababli, mol-mulk soliqlarining samaradorligini oshirish masalasini ko'rib chiqishda mulklarni baholash ishlarining zamon talabiga moslashtirib olib borilishi, ko'zlangan muammoni hal qilishning asosiy elementi hisoblanadi.

Bu soliq turi iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ri soliq sifatida amal qiladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 1993 yil 28 dekabrda "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'g'risida"gi Qonuni asosida joriy etilgan bo'lib, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 48-bob, ya'ni 272-277 moddalari asosida undiriladi va huquqiy tartibga solinadi.

Mazkur kodeksning 272-moddasiga muvofiq, mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir. Bu yerda agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir.

Soliq solish ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar hisoblanadi. Soliq kodeksining 274-moddasiga muvofiq, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha

to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha tegishli organlar tomonidan belgilangan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun 2012 va 2013 yillar uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida – 18480,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda – 8030,0 ming so'm miqdoridagi mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulklari texnik inventarizatsiyalash byurosi (TIB) xodimlari tomonidan baholanadi.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini undirishda progressiv soliq stavkasi turi qo'llaniladi. Bunda mol-mulk solig'i ob'ektining hajmiga nisbatan o'sib boruvchi stavkalar (progressiv) asosida soliq to'lanadi. Soliq amaliyotida 2011 yildan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari progressiv stavkaga o'tildi. 2011-2014 yillar uchun mazkur soliq turi uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari asosida belgilab berilgan.

2-jadval

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari⁵

Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi	Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (%da)			
	2011 y	2012 y	2013 y	2014 y
Turar joylar, kvartiralar (shahar joylarida umumiy maydoni 200 kv.m. ortiq bo'lganlardan tashqari) dala hovli, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,75	0,9	1,04	1,2
Shahar joylarida joylashgan turar joylar, kvartiralarining umumiy maydoni:				
200 kv.m. ortiq 500 kv.m. gacha	0,9	1,1	1,25	1,4
500 kv.m. ortiq	1,13	1,35	1,55	1,8

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, 2011-2014 yillar mobaynida soliq stavkalarida anchagina o'zgarishlar yuz bergan. Bu esa birinchi navbatda mulkiy resurslardan olinadigan soliqlarni oshirib borish siyosatidan kelib chiqadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga ilova.

Turar joylarning egallagan umumiy maydoniga qarab soliq stavkasining belgilanishi ijtimoiy adolat tamoyillariga mos keladi. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasining quyi shkalasi 2011 yilga nisbatan 2014 yilda 0,45 punktga oshirilgan bo'lsa, uning yuqori shkalasi esa 0,67 punktga ko'paygan.

Amaldagi Soliq kodeksiga ko'ra, soliq solish ob'ektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

3. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblash va uni byudjetga to'lashda soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda soliq ob'ektidan ushbu soliq turi bo'yicha soliq qonunchiligi bo'yicha taqdim qilingan imtiyozlar ayrilgan holda hisoblanadi. Shuning uchun dastlab, soliq qonunchiligida belgilangan imtiyozlar tizimini ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksi 275-moddasi jismoniy shaxslardan olindigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lgan shaxslar doirasini tartibga soladi. Uning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu qonunchilik asosida har qanday mol-mulk solig'idan ozod etiladigan jismoniy shaxslarning qator toifalarini ajratadi va soliqdan imtiyoz beradi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan farqli ravishda, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida mahalliy davlat hokimiyati organlarining ushbu soliqning to'lovchilari bo'lmish jismoniy shaxslar uchun qo'shimcha imtiyozlarni berish huquqi nazarda tutilmagan.

Soliq kodeksining 275-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'idan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solinmaydi:

▪ «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishli ravishda «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

▪ urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

▪ o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

▪ qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning;

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo'lgan pensionerlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarganda mol-mulk solig'i soliq solinmaydigan eng kam miqdordan oshadigan maydondan to'lanadi.

Bunda soliq solinmaydigan eng kam miqdor summasini aniqlash uchun mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati mol-mulk maydonining umumiy miqdoriga bo'linadi va 60 kv. metr (soliq solinmaydigan eng kam miqdor) ko'paytiriladi. Olingan natija mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymatidan chiqariladi.

Pensionerlar uchun byudjetga to'lanadigan mol-mulk solig'i summasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$(V_{um} - (V_{um}/S_{um}) * 60 \text{ kv. metr}) * TR$$

bu yerda:

S_{um} - mol-mulk egallagan maydonining umumiy miqdori;

V_{um} - mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati;

TR- mol-mulk solig'i stavkasi.

Masalan, mulk huquqida pensionerga tegishli bo'lgan mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati 22500000 so'mni tashkil etadi, mol-mulk umumiy maydonining miqdori - 174 kv. metr, bu holda byudjetga to'lanadigan soliq summasi:

$[22500000 - (22500000 / 174) * 60] * 1,2\% = 176\ 896$ so'mni tashkil etadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari

Ma'lumki, soliq tizimini takomillashtirishda asosiy e'tibor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat byudjeti bilan majburiy to'lovlar bo'yicha iqtisodiy munosabatlarning eng qulay uyg'unligini ta'minlashga qaratilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjet daromadlari shakllantirilishida mol-mulk solig'ining miqdori va o'rnini hozircha unchalik katta emas. Bu borada xorijiy davlatlardagi holat ham deyarli bir xil. Lekin rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjetiga tushadigan soliqlarning absolyut ko'rsatkichlari bo'yicha tushumi rivojlanayotgan davlatlardagiga nisbatan ancha yuqori salmoqni tashkil etadi.

Shuningdek, ko'pgina xorijiy davlatlarda bo'lgani kabi, bizning mamlakatimizda ham jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini shakllantiruvchi soliqlardan hisoblanadi.

Bizning mamlakatimizda jismoniy shaxslar mol-mulkiga egalik huquqi, mulklar samaradorligiga qiziqish va undan manfaatdorlik masalalari hududlar doirasida katta farqlanish (tafovut)ga ega, shu sababli mulklarni real vaziyatdan kelib chiqqan holda baholash, soliq me'yorlarini belgilash hamda soliqlarni hisoblash ishlarida mahalliy hokimiyatlar vakillari albatta katnashishlari lozim, chunki ular o'z hududidagi mulklarning hajmiga qarab, bahosi bo'yicha aniq malumotga ega bo'ladi va mulklarning bozor bahosini ishlab chiqish borasidagi koeffitsientlarga aniklik kiritishda faol ishtiroklari talab etiladi.

Chunonchi, mahalliy hokimiyatlar tomonidan mahalliy byudjet parametrlarini belgilashda - hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, hududdagi ko'chmas mulklar bahosidan, aholining real turmush sharoitidan, mulkdorlar o'rtasidagi tengsizliklarni inobatga olib, mol-mulkni soliqqa tortishni belgilash ayniqsa muhimdir.

Soliq qonunchiligida mahalliy hokimiyat organlari mahalliy soliqlar bo'yicha o'z hududida joylashgan soliq tushumlarini hisobga olishda katnashishi lozimligi qayd qilingan. Shu sababli, ya'ni mahalliy xokimiyat organlari tomonidan o'z

hududida joylashgan solik to'lovchining mulk bahosini oshirish koeffitsientlarini ishlab chiqish va soliq stavkalarini qayta ko'rib chiqish orqali hududlar byudjetini daromadlar bazasini o'zgarishini amalga oshirish mumkin.

Mahalliy hokimliklarga belgilangan qonunlar asosida va o'rnatilgan tartibda byudjet avtonomiyasini berish hamda ularda daromadlarni jalb etish bo'yicha manfaatdorlik tamoyilini qo'llash imkoniyatini berish orqali hududiy moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. Faqatgina qonuniy tartibda aniq belgilab qo'yilgan soliq-byudjet vakolatlarigina mahalliy hokimiyat organlarini o'zlarining moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati uchun javobgarligini ta'minlashi mumkin. Shu bilan birga, mahalliy hokimiyatlar byudjet xarajatlarini amalga oshirishda cheklovlarni joriy qilinsa, bu tadbirlar mahalliy hokimiyatlarni yuqori organlarga emas, balki o'zlarining iqtisodiy-moliyaviy faoliyatlari natijalariga bog'liq qilib qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi 2014 yil uchun turar-joylar, boshqa imoratlar va xonadonlarning texnik inventarizatsiya tomonidan qayta baholangan qiymatiga nisbatan 1,2 foiz miqdorida o'rnatilgan. Agar mulk solig'i ob'ektlarining umumiy maydoni ma'lum chegaradan o'tsa (xususan, 200 kv.metr dan 500 kv metrgacha, hamda 500 kv.metr dan oshgan qismiga) progressiv tarzda soliqqa tortiladi. Shunday bo'lsada, jismoniy shaxslar mol-mulklarining haqiqiy bozor bahosi inobatga olinmaydi. Mol-mulklarni va tugallanmagan inshootlarni qayta baholash ishlari hozirgi kundagi haqiqiy bozor bahosidan ancha past baholanmokka. Natijada qayta baholangan mol-mulklarining bahosi haqiqiy bozor bahosidan ancha farq qiladi, bundan tashqari yangi qurilgan ob'ektlar (uy,dala xovli,kotejlar) ning texnik ro'yxatga olish byurosidan ro'yxatdan o'tkazish, mulkni baholash va qayta baholash ishlari ko'ngildagidek emas.

Soliq stavkasi mulkning texnik inventarizatsiya qiymatiga nisbatan qo'llanilayotganligi mahalliy byudjetlar daromad bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki har qanday rivojlangan davlatda mulkning bozor bahosi (inflyatsiya darajasini chegirgan holda) soliq ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mahalliy byudjetlar bazasini iqtisodiyotning rivojlanishi va makroiqtisodiy

ko'rsatkichlar o'zgarishiga qarab oshib borishini ta'minlaydi. Bizda esa, mulkning inventar qiymati bir necha yillar mobaynida o'zgarishsiz qolayotganligi mahalliy byudjetlarni muhim daromadlar zaxirasidan mahrum qilmoqda.

Bizningcha, bu borda qurilish mollari va xizmatlar bozorining real narxlaridan kelib chiqqan holda, jismoniy shaxslarning mulk solig'i stavkasini har 2 yilda yil boshiga hisobga olishda indeksatsiya koeffitsientini qo'llash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish lozimki mol-mulknii inventarizatsiya qiymati bo'yicha baholashdan voz kechish hamda bozor qiymati bo'yicha baholashni qabul qilish, solik summasini turli koeffitsientlar vositasida yoki boshqa usullar bilan yangicha hisoblashga o'tish usullarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. -40 B.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr -O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2012 y. -590 B.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi
5. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. -T.: "Sharq". 2009. -526 b
6. Abduraxmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari./ Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005.
7. <http://www.prezident.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.
8. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti.
9. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
10. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
11. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.